

BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZ NAZDIDA MUMTOZ MUSIQA

Samiyeva Mehriniso Azimovna

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

Shamsullayev Shahriyor Sunnatillo o'g'li

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti talabasi

Buyuk faylasuf - olim, o'rta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri – Abu Nasr Muhammad Forobiy 873-yilda Sirdaryo yoqasidagi Forob shahrida tug'ilib, 950-yilda vafot etgan. U O'rta Osiyo qabilalaridan chiqqan bo'lib, dastlabki ma'lumotni o'z ona shahrida olgan. Durustgina bilim egasi bo'lgan Forobiy Bag'dod, Damashq shaharlariga, so'ngra Misrga boradi va u yerlarda o'z ma'lumotini oshiradi.

Forobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi ham edi. U o'z davrida mavjud hamma musiqa cholg'ularida chaldirdi. Ayniqsa kuylarni nay va tanbur cholg'ularida katta mahorat bilan ijro etardi. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, Forobiy qonun cholg'usini ixtiro etgan, o'sha davrlarda mashhur bo'lgan ud sozini takomillashtirishda juda kata ishlar olib borgan.

Buyuk olim falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlar bo'yicha teran ilmiy asarlar yaratgan zamonasining yetakchi olimlaridan edi. Musiqa ilmi esa matematika fanlaridan biri hisoblanardi.

Abu Nasr Forobiy o'zining musiqaga bag'ishlagan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari "Kitabul musiqiy al-kabir" ("Musiqa doir katta kitob"), "Qalam fil-musiqa" ("Musiqa haqida so'z"), "Kitabul musiq" ("Musiqa kitobi"), "Kitabun fi-ihsa'il-ulum" ("Fanlar tasnifiga doir kitob") ning musiqaga bag'ishlangan qismi, "Kitabun fi-ihsa'il-iqo" ("Musiqa ritmlari -iqo' tasnifi haqida kitob") va boshqalardir.

Forobiyning musiqa asarlari orasida "Kitabul-musiqiy al-kabir" alohida diqqatgasazovordir. Bu kitob mashhur sharqshunos olim D.Erlanje tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib "Arab musiqasi" turkumida nashr etilgan. Asar muqaddima va uchbo'lak kitobdan iborat.

Muqaddima qismida muallif kuy ta'rifi, musiqaning nazariy va amaliy masalalari, kuyning paydo bo'lishi, musiqa janrlari, cholg'ular, kuylarning ta'rifi, kuylarning ijrosi, intervallar, tovushqatorlar, konsonanslar va dissonanslar haqida fikr yuritadi.

Birinchi kitobda musiqaviy akustika, nag'ma (tovush)lar nisbati, intervallarning turlari, ularni hosil etilish qoidalari, ritmlar va boshqa masalalar sharhlab beriladi.

Ikkinchi kitobda ud, tanbur, rubob kabi sozlar, ularning pardalari, torlari va diapazoni haqida gap boradi.

Uchinchi kitob kuylar va maqomlarni hosil etish, ritm, cholg'u va vokal musiqa, kuy bezaklari va boshqa masalalarga bag'ishlanadi.

Maqomlar masalasini yoritishda ayniqsa uchinchi kitob muhimdir.

Bu o'rinda lad (maqom)larning tashkil etiladigan qismlari –tetraxord va pentaxordlarning turlari, maqomotningjuda ko'p xillari, uning sho'balari keltiriladi.

Shuni alohida aytish kerakki, Abu Nasr Forobiy o'zining bu o'lmas asarida sharqda nota yozuvining vujudga kelishida chuqur zamin hozirlab bergan edi. Binobarin, kuylarning parda asosi bilan bevosita

bog'liq bo'lgan lad (maqom) yozuv namunalarini ixtiro etdi va harfiy belgilar vositasi bilan yozib qoldirdi. Vokalistlarni eslatuvchi bu kuy namunalari o'z harakati bilan zamonasida mavjud musiqa asari, shu bilan birga maqom uslubidagi musiqaasarlari yo'llarini ham ifodalaydi. Forobiyning jadvali o'sha zamonlarda musiqa madaniyatining yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Jadval musiqa nazariyasining amaliyotda qo'llanishning yuksak namunasi. Unda keltirilgan tovushqator namunalarining murakkabligi Forobiy zamonidajiro texnikasining ham yuksak bo'lganligini tasdiqlaydi.

Abu Nasr Forobiyning musiqa risolalarida maqomlar masalasi ilk bor sharhlab berilgan edi. X-XI asrlarda mashhur bo'lgan maqomlarni o'rganishda uning asarlari yagona manba bo'lib xizmat etadi.

Bu o'rinda Forobiyning o'tmishdoshi, ulug' tabib va olim Abu Bakr Muhammad bin Zakariy ar-Roziy haqida ham eslatish o'tish lozim. Ar-Roziy Sharq fani vamaadaniyati tarixida yuksak rol 'ynagan edi. U yoshligida ud sozini chalishni mashq qilgan, ashula aytishni yaxshi ko'rgan. Lekin Roziyning musiqaga doir asar yozgani to'g'risida ma'lumot bo'lmasa-da, uning turli fan sohalariga oidkitoblari orasida "San'at haqida o'n ikki kitob"- "Al isnoasharakitoban fis-san'ati" asari ham bo'lgan. Bu kitoblarning biri musiqa nazariyasida bahs etgan bo'lishi ehtimol.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – C. 191-194.
2. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 31-36.
3. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 1067-1071.
4. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – C. 26-28.
5. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatining Tutgan O'rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
6. Артыкова, Э. ., & Рузиева, З. (2022). ВЕЛИКОЕ БЛАГОСЛОВЕНИЕ – ПЕСНЯ ШАШМАКОМ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 1(2), 22–24. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/6459>
7. E Ortikov. Historical Analysis of National Musical Heritage and Moral-Aesthetic Education in Music and Art Schools of Uzbekistan . 2023/8/20 Academic Journal Publisher <http://dspace.umsida.ac.id/handle/123456789/5948>
8. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 60-66.
9. Mustafaev B. FROM THE HISTORY OF MUSIC EDUCATION AND PEDAGOGICAL SYSTEM ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE 1950s-1970s //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 1007-1012
10. Мустафаев Б. “БУХОРЧА” ВА “МАВРИГИ” МУСИҚИЙ ТУРКУМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ, МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.

11. Мустафаев Б. БАРКАМОЛ АВЛОД МУСИКА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ИСЛОҲОТЛАРНИН АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
12. Мустафаев Б. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУСИҚИЙ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
13. Мустафаев Б. УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МУСИҚИЙ ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
14. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
15. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
16. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.